

**RAQAMLI DAVRDA INNOVATSION FIKRLASH VA AXBOROT
MADANIYATINING AHAMIYATI**

Sheraliyev Javohir Ilhom o'g'li

Ilmiy tadqiqotchi

Toshkent farmatsevtika instituti Farmatsiya yo'nalishi 2-kurs talabasi

Abduraxmonov Xasan Ibroximovich

Ilmiy Ilmiy rahbar

Toshkent farmatsevtika institute F.f.b.f.d.(phd), dotsent

hasanabdurahmonov1991@mail.ru

+998998820791

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 20.08.2024

Revised: 21.08.2024

Accepted: 22.08.2024

KALIT SO'ZLAR:

*raqamli davr,
innovatsion fikrlash,
axborot madaniyati,
yoshlar tafakkuri,
tanqidiy fikrlash, ijodiy
yondashuv, raqamli
texnologiyalar, axborot
tahlili, axborot
xavfsizligi, kreativ
yondashuv, texnologik
savodxonlik,
intellektual rivojlanish,
media madaniyati,
raqamli tafakkur,
ijodkorlik*

Maqolada raqamli texnologiyalar tobora rivojlanib borayotgan hozirgi davrda yoshlar uchun innovatsion fikrlash va axborot madaniyatining o'rni haqida so'z yuritiladi. Unda innovatsion fikrlashning mazmuni va o'ziga xos jihatlari, uning yoshlar tafakkuriga ko'rsatadigan ta'siri tahlil qilinadi. Axborot madaniyatining mohiyati, uning asosiy tarkibiy qismlari hamda tanqidiy va ijodiy fikrlashning ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy sharoitda yoshlarning yangicha qarashlar va samarali yechimlar topish ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha ayrim tavsiyalar keltiriladi..

KIRISH. Raqamli texnologiyalar hayotimizning har bir jabhasiga kirib kelgan bugungi kunda, axborotni qabul qilish, uni tahlil qilish va undan samarali foydalanish ko'nikmalari har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, yosh avlod uchun bu jarayonlar nafaqat texnik mahorat, balki tafakkur darajasini aks ettiruvchi muhim

ko‘rsatkichga aylanmoqda. Innovatsion fikrlash va axborot madaniyati — zamonaviy bilimli shaxsning asosiy tayanchlaridan bo‘lib, ular yordamida inson o‘z hayoti va jamiyat taraqqiyotida faol ishtirok etishi mumkin. Hozirgi davr insoniyat hayotida keskin burlish davri bo‘lib, axborot oqimining shiddati va raqamlı texnologiyalar ta’siri ortib bormoqda. Bu sharoitda yoshlar dengiz kabi oqib kelayotgan ma’lumotlar orasida nafaqat keraklisini tanlab olish, balki uni tahlil qilish va amaliyotga tadbiq etish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi zarur. Axborotning haddan ziyod ko‘pligi tafakkur qobiliyatining zaiflashishiga olib kelishi mumkin, shu sababli yosh avlodda tanqidiy va innovatsion fikrlashni shakllantirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Innovatsion fikrlash — narsalar va hodisalar mohiyatini anglash, muammolarga noodatiy yondashish hamda yangi va original yechimlarni ishlab chiqish qobiliyatidir. Bunday fikrlashga ega inson stereotiplardan xoli bo‘lib, turli vaziyatlarda nostandard qarorlar qabul qilishga tayyor bo‘ladi. Insonning ijodiy salohiyatini ochish, uni yangilikka intilishga undash innovatsion tafakkurning asosiy xususiyatlaridan biridir. Axborot madaniyati esa faqat ma’lumot yig‘ish bilan cheklanmay, uni tekshirish, baholash, tizimlashtirish va jamiyat manfaatlari yo‘lida qo‘llashni o‘z ichiga oladi. Bunda bilim va e’tiqod uyg‘unligi, shuningdek, his-tuyg‘ularning ham muhim o‘rni bor. Bili mva tuyg‘u muvozanati yo‘qolsa, fikrlash biryoqlama bo‘lib qoladi, bu esa dogmatizmga olib keladi. chinchi ming yillik boshida insoniyat hayotida yangi davr boshlandi. Raqamlı texnologiyalar, axborot oqimining beqiyos tezligi va miqdori, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida innovatsion yondashuvlarning talab qilinishi bu davrning asosiy belgilaridir. Bunday sharoitda yoshlar faqat tayyor ma’lumotlarni qabul qilibgina qolmay, balki ularni tahlil qilish, baholash, tizimlashtirish va amaliyotda qo‘llash qobiliyatiga ega bo‘lishlari zarur. Zamonaviy davrning murakkabligi shundaki, haddan tashqari katta hajmdagi axborot inson tafakkurining zaiflashishiga olib kelishi mumkin. Chunki ko‘p hollarda turli nazariy qoliplar, konstruksiyalar, modellar, obrazlar va boshqa “fikriy chiqindilar” voqelikni to‘g‘ri anglashga xalal beradi. Shu bois yoshlar tafakkurida tanqidiy yondashuvni rivojlanishiga, stereotiplarni yengish va noodatiy yechimlar topa olish ko‘nikmalarini shakllantirish za mon talabi hisoblanadi. Innovatsion fikrlash — narsalar va hodisalar mohiyatini anglash, mavjud muammolarga noodatiy yondashish hamda yangi, original yechimlarni ishlab chiqish qibiliyatidir. U insonni ijodiy faoliyatga undaydi, muammoni hal qilishda standart bo‘lmagan qarorlarni qabul qilishga tayyorlaydi. Innovatsion tafakkurga ega shaxs ish faoliyatida kamroq xato qiladi, turli vaziyatlarda moslashuvchanlik ko‘rsatadi va yangilikka intiladi. Axborot madaniyati esa ma’lumotni yig‘ishdan tashqari, uni tekshirish, baholash, tizimlashtirish va foydali maqsadlarda qo‘llashni o‘z ichiga oladi. Bu jarayonda bilim, e’tiqod va his-tuyg‘ular uyg‘unligi muhim ahamiyatga ega. Agar bilim hissiy komponentdan ajralib qolsa, inson layoqatli bo‘lsa-da, befarq va qattiqqo‘l bo‘lishi mumkin; faqat his-tuyg‘ular ustun bo‘lsa, bu holat fikrning beqarorligiga olib keladi. Shu bois, axborot madaniyati bilim va tuyg‘u muvozanatiga tayanadi. Innovatsion tafakkur yoshlarning nafaqat ilmiy, balki shaxsiy rivojlanishida ham muhim omildir. U shaxsiy

motivatsiyani oshiradi, o‘zini anglash va ijodiy imkoniyatlardan samarali foydalanishga yordam beradi. Bu esa nafaqat individual muvaffaqiyat, balki jamiyat taraqqiyoti uchun ham zarurdir. Davlat miqyosida yoshlarni ilmiy izlanishlar, startaplar, zamonaviy ta’lim va kasbiy tayyorgarlik tizimlari orqali qo‘llab-quvvatlash innovatsion dunyoqarashni shakllantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bugungi tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan zamonda “kim yutadi?” degan savolga javob aniq: yangi fikrga, yangi g‘oyaga, innovatsiyaga tayanib ishlagan shaxs yoki jamiyat yutadi. Chunki fuqarolarning farovonligi va davlatning kuchi bevosita uning innovatsion rivojlanish darajasi va axborot madaniyatiga bog‘liqdir. Shunday qilib, raqamlı davrda innovatsion fikrlash va axborot madaniyati bir-birini to‘ldiruvchi ikki asosiy ustun bo‘lib, ular yoshlarning tafakkurini yuksaltiradi, ijtimoiy faoliyatini kuchaytiradi va jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun mustahkam poydevor yaratadi. Inson hayotida uchraydigan dunyoqarashni yuksaltirish bilan bog‘liq masalalarning o‘ziga xos jihatlari quyidagilar bilan ajralib turadi: birinchidan, bu dunyoqarash bilan bog‘liq masalalar shu darajada murakkab va chuqrski, ularga buyuk hikmat egalari necha asrlardan buyon javob izlab kelganlar va echimsiz muammolar haligacha mavjud; ikkinchidan, dunyoqarash bilan bog‘liq masalalar bir individ hayotiga emas, butun insoniyatga taalluqlidir; uchinchidan, agar dunyoqarash bilan bog‘liq savollarga to‘g‘ri echim topilsa, boshqa har qanday savol echimining kaliti topilgan bo‘ladi; to‘rtinchidan, shu savollarga o‘zini qoniqtiradigan javob topilmaganicha oqil inson o‘zini chinakam baxtli deb his eta olmaydi. Sunday masalalarni umumlashtirib, bir so‘z bilan dunyoning mohiyati va unda insonning tutgan o‘rni haqidagi yoki qisqa qilib, dunyoning (shu jumladan inson ichki dunyosining) mohiyati haqidagi masalalar yoki yana ham qisqacha: dunyoqarash masalalari deyiladi. Yoshlar dunyoqarashini shakllantirishda ijtimoiylashuv jarayonlarini tartibga solish kerak bo‘ladi. Shundagina biz yoshlarni jamiyatning dinamik manbai sifatida baholash imkoniga ega bo‘lamiz. Jamiyatda yoshlarning o‘zi ham innovatsion dinamik jarayonlarni harakatlantiruvchi faol sub’ekt sifatida namoyon bo‘ladi. SHunday qilib, davlat siyosati nafaqat yoshlar faolligini oshirishga alohida e’tibor qaratishi, balki yosh avlodning dunyoqarashi da tub o‘zgarishlar hosil qilishi kerak bo‘lsa, davlat strategiyasini ularning tafakkur tarzi va amaliy faoliyatiga moslashtirishi kerak. Bu yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga katta xizmat qiladi. Yoshlar dunyoqarashini shakllantiruvchi asosiy omil bu aniq bilimlarning mavjudligi emas, balki ularni tizimlashtirish, dunyon anglash uchun bilimlar zaxirasini rivojlantirish va unga o‘zgacha munosabatni shakllantirishdir. Bunday noodatiy munosabatni tashkil toptirishda innovatsion dunyoqarash muhim rol o‘ynaydi. Bu tushunchaga ta’rif berishdan oldin biz “tafakkur” va “innovatsiya” tushunchalariga to‘xtalib o‘tamiz.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Hozirgi zamonning tez sur’atlar bilan rivojlanishi, raqamlı texnologiyalarning hayotning barcha jahbalariga kirib kelishi yoshlar tafakkurida katta o‘zgarishlar yasamoqda. Axborot oqimining kengayishi har bir insondan ma’lumotni to‘g‘ri qabul qilish, uni sinchiklab tahlil etish va foydali yo‘nalishga

yo'naltirishni talab qiladi. Bunday sharoitda innovatsion fikrlash — yangicha qarashlarga ega bo'lish, noodatiy yondashuvlarni qo'llash va original yechimlar ishlab chiqish qob iliyati — zamon talabi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Axborot madaniyati esa nafaqat ma'lumot yig'ish, balki uni saralash, ishonchligini tekshirish, tizimlashtirish va amaliyotda foydali tarzda ishlata olishni o'z ichiga oladi. Bilim, e'tiqod va his-tuyg'ularning uyg'unligi ushbu jarayonning poydevorini tashkil etadi. Innovatsion tafakkur bilan boyigan ax borot madaniyati yoshlarni ijodkor, yangilikka intiluvchi va faol fuqarolar sifatida shakllantiradi. Shu bois bu ikki omil nafaqat shaxsiy muvaffaqiyat, balki jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun ham eng muhim tayanchlardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizni rivojlanishning yangi bosqichiga olib chiqish strategik vazifasining hal etilishi uning global rivojlanish yo'liga kirishini taqozo etadi. Shu boisdan ham innovatsiyalarni har tomonlama chuqur o'rghanish ilmiy innovatsion siyosatni shakllantirishga imkon beradi, uning maqsadi esa butun innovatsion sikl davomida ijtimoiy, iqtisodiy va tashkiliy sharoitlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu jarayon o'z navbatida yangi bilimlarni iqtisodiyotning ishlab chiqarish sektoriga o'tkazilishini ta'minlaydi. Bugungi kunda mamlakatimizda innovatsion siyosatning ilmiy kontseptsiyasining yo'qligi jamiyatning iqtisodiy sohasiga davlat ta'siri mexanizmlarining shakllanishiga to'sqinlik qilmoqda.

Shu boisdan ham ushbu muammolarni hal qilish uchun ilmiy asos yaratadigan va yangilanish uchun obyektiv va subyektiv shart-sharoitlarni aniqlash, yangi loyihalarni tanlash mezonlari va baholarini ishlab chiqishga imkon beradigan innovatsion metodologiyani ishlab chiqish zaruriyati bugungi kunda tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Uni yaratish uchun ayrim fanlarning (iqtisodiyot, sotsiologiya, menejment va boshqalar) metodologik asoslarini tanqidiy qayta ko'rib chiqish, ularning potensial samarali uslubiy g'oyalarini qaytadan ishlab chiqish va yangi integratsiyalashgan yondashuvga kiritish uchun yangi fanlararo sintez sifatida innovatsion metodologiyani yaratish muhim ahamiyatga ega. Innovatsiyalarni shakllantirishning dolzarbligi, u nafaqat bugungi kundatartibiga jamiyatni yangi asosda qayta qurish vazifasini qo'yadi balki inson ehtiyojlariga javoban shakllantirilganligi bilan ham alohida ajralib turadi.

Xulosa va takliflar Raqamli texnologiyalar hayotimizning ajralmas qismiga aylangan bugungi kunda innovatsion fikrlash va axborot madaniyati shaxsiy hamda ijtimoiy taraqqiyotning muhim omillari sifatida namoyon bo'lmoqda. Axborotning haddan tashqari ko'pligi sharoitida tanqidiy yondashuv, tahliliy fikrlash va ijodiy qarorlar qabul qilish ko'nikmalari har bir yosh uchun zaruriy fazilatga aylanmoqda. Innovatsion tafakkur insonni yangilikka intilishga, noodatiy yechimlar topishga va ijodiy faoliyatga undaydi. Axborot madaniyati esa faqat ma'lumotni egallash emas, balki uni anglash, baholash va amaliyotda samarali qo'llashni talab qiladi. Bu ikki tushuncha birgalikda shaxsning intellektual salohiyatini oshiradi, o'zini anglashga yordam beradi va jamiyatda faol ishtirok etishga zamin yaratadi. Yoshlarni innovatsion fikrlashga yo'naltirish, ularni zamonaviy ta'lim, ilmiy izlanishlar va startaplar orqali qo'llab-quvvatlash — raqamli davrda raqobatbardosh

=====
jamiyat qurishning muhim shartidir. Chunki bugungi kunda g‘oya va innovatsiyaga tayanib harakat qilgan shaxs yoki jamiyat yutadi. Shunday qilib, innovatsion fikrlash va axborot madaniyati raqamli asrning tayanch ustunlari bo‘lib, ular yosh avlod tafakkurini yuksaltiradi, ijtimoiy faolligini oshiradi va barqaror jamiyat qurilishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yhati:

1. Karimov I.A.Yuksak ma’naviyat – yengimas kuch.-T.: “Ma’naviyat”, 2008.
2. Sadriddin Salim Buxoriy. Tabarruk ziyyaratgohlar.T.: “Yozuvchi”, 1993.
3. Хошимов С.А., Расулов Б.Р., Ҳакимов А.А. Манбашунослик. Ўқув қўлланма, Тошкент, 2014.
4. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2005.
5. Заҳириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. – Т.: Фан, 2019.
6. Sh.M.Mirziyoyev Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. - Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022.